

ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN TEST VARIANTI TAFSILOTI

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida **ona tili va adabiyot fanidan** talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

I. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ASOS BO'LUVCHI ME'YORIY HUJJATLAR

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida" 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori;
- Ona tili va adabiyot faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

II. QAMRAB OLINGAN BO'LIMLAR

Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari asosida ona tili va adabiyot fanining quyidagi bo'limlari qamrab olinadi:

1. Fonetika
2. Grafika
3. Orfografiya
4. Orfoepiya
5. Leksikologiya
6. Frazeologiya
7. Grammatika
8. Uslubiyat
9. Adabiyot tarixi
10. Adabiyot nazariyasi

III. TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI

- Y-1**–bitta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli yopiq test topshirig'i;
- Y-2**–moslashtirishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test topshirig'i;
- O-1**–qisqa javobni talab qiladigan (**a** va **b** bandlarga bo'lingan) ochiq test topshirig'i;
- O-2**–kengaytirilgan javobni talab qiladigan ochiq test topshirig'i.

IV. ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST VARIANTI FORMATI

Bo'lim	Topshiriqlar soni	№	Test turi
Imlo qoidalari	2	1	Y-1
		2	Y-1
Lug'at boyligi	2	3	Y-1
		4	Y-1
Til birliklari uslubiyati	2	5	Y-1
		6	Y-1
Grammatika	6	7	Y-1
		8	Y-1
		9	Y-1
		10	Y-1
		11	Y-1
Punktuatsiya	1	12	Y-1
Adabiyot nazariyasi va adabiyot tarixi	5	13	Y-1
		14	Y-1
		15	Y-1
		16	Y-1
		17	Y-1
O'qish savodxonligi	15	18	Y-1
		19	Y-1
		20	Y-1
		21	Y-1
		22	Y-1
		23	Y-1
		24	Y-1
		25	Y-1
		26	Y-1
		27	Y-1
		28	Y-1
		29	Y-1
		30	Y-1
		31	Y-1
		32	Y-1
Mavzular doirasida moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari	3	33	Y-2
		34	Y-2
		35	Y-2
Lingvistik va badiiy tahlil	9	36	O-1
		37	O-1
		38	O-1
		39	O-1
		40	O-1

		41	0-1
		42	0-1
		43	0-1
		44	0-1
Yozma savodxonlik	1	45	0-2
Jami:		45	
Test topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt – 180 daqiqa.			

V. FAN MAZMUNI TARKIBI

№	Baholanadigan mazmun elementi
1.	ONA TILI
1.1	Fonetika, grafika Yozuvlar tarixi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi. Nutq tovushlari va harf. Unli tovushlar. Undosh tovushlar. Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi. Fonetik hodisalar: so'zlarda tovush ortishi, so'zlarda tovush tushishi, so'zlarda tovush almashishi. Bo'g'in va uning ahamiyati. Urg'u va uning ahamiyati.
1.2	Talaffuz va imlo me'yorlari Harflar imlosi. Ayrim unlilar imlosi. Nutqda o'zgaruvchi unlilar. Ayrim undoshlar imlosi. Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi. Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi. Nutqda o'zgaruvchi undoshlar. Asos va qo'shimchalar imlosi. Qo'shib yozish imlosi. Ajratib yozish imlosi. Bosh harflar imlosi. Chiziqcha bilan yozish imlosi. Ko'chirish qoidalari. Imlo lug'atidan foydalanish.
1.3	Punktuatsiya (tinish belgilari) Yozma nutqda tinish belgilarining ishlatilishi. Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi. Uyushiq bo'lakli va ajratilgan bo'lakli gaplarda ohang va tinish belgilari. Kiritmalar va undalmalarda tinish belgilari. Qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi. Tinish belgilarining nutqdagi ahamiyati.
1.4	Leksikologiya O'zbek tilining lug'at boyligi. So'zning atash ma'nosi. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. Ko'chimlar, metafora, metonimiya, sinekdoxa. Epitet. Mubolag'a va kichraytirish. Ifodalilik va kinoya. Ifodalilik va o'xshatishlar. Ifodalilik va ibora. Shevaga xos so'zlar. Eskirgan so'zlar. Olinma so'zlar. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Yangi paydo bo'lgan so'zlar. Tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar. Ismlar ma'nosi. Atamalar (ilmiy atamalar, kasbiy atamalar: iqtisodiyotga oid terminlar, internetga oid terminlar, aniq fanlarga oid terminlar, ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid terminlar). Iboralar. Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi. Maqollar. Hikmatli so'zlar. Tasviriy ifoda. Lug'at va lug'atshunoslik. Izohli lug'atdan foydalanish. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Sinonimlar. Omonimlar. Antonimlar. Paronimlar. Uyadosh so'zlar.
1.5	Uslubiyat Nutq uslublari haqida ma'lumot. Nutq uslublarning turlari: so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub. Nutqiy uslublari va

	<p>uslubiy bo'yoq. Nutqiy uslublar va til vositalari. Til birliklaridan nutqda to'g'ri foydalana olish, ularning uslubiy xususiyatlari, uslubiy bo'yoq hosil qilishda til birliklari orasidagi nozik farqlar. Nutqda o'rinli va no'rin so'zlar. Nutqdagi taqiqlar. Evfemizm va disfemizmlar. Olmoshlar uslubiyati. Ortiqcha qo'shimchalar. Qo'shimchalar tanlovi. Nutqda shakl va mazmun mosligi. Leksik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash. Ma'nodosh (sinonim), shakldosh (omonim), zid ma'noli (antonim), paronim so'zlar uslubiyati. Morfologik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash. Ko'plik qo'shimchasining uslubiyati. Kelishik qo'shimchalarining uslubiyati. Kelishiklar ma'nodoshligi. Ko'makchilar va kelishik qo'shimchalari ma'nodoshligi. Subyektiv baho ifodalovchi qo'shimchalar uslubiyati. Zamon qo'shimchalarining uslubiyati. Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiyati. Inkor ifodalovchi morfologik vositalarning uslubiyati. Sintaktik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash. Gapda so'z tartibi uslubiyati. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari uslubiyati. Ritorik so'roq gaplar uslubiyati. Undalmalar uslubiyati. Gapda kiritmalar uslubiyati. Qo'shma gaplar uslubiyati. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar uslubiyati.</p>
1.6	<p style="text-align: center;">Morfologiya</p> <p>So'z tarkibi. Asos va qo'shimchalar. Qo'shimchalar tasnifi. Tub va yasama so'zlar. So'z yasalishi. Asosdosh so'zlar. Shakl yasovchi qo'shimchalar. So'z tarkibida tartib. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Ismlarning lug'aviy va munosabat shakllari. So'z turkumlari. Mustaqil, yordamchi va alohida olingan so'z turkumlari. Fe'l so'z turkumi. Fe'lning ma'noviy guruhleri. Harakat va holat fe'llari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlari. Fe'lning vazifa shakllari. Ko'makchi fe'llar. Fe'llarning munosabat shakllari. Fe'lning zamon shakllari. Fe'lning mayl shakllari. Fe'lning shaxs-son shakllari. Fe'llarning yasalishi. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari. Ot so'z turkumi. Otning ma'no turlari. Atoqli otlar. Turdosh otlar. Shaxs, narsa, o'rin-joy va faoliyat-jarayon otlari. Aniq va mavhum otlar. Otlarning lug'aviy shakllari. Otlarning yasalishi. Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sifat so'z turkumi. Sifatning ma'no guruhleri. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi. Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sifatlarning otlashishi. Son so'z turkumi. Sonlarning ma'no guruhleri. Hisob so'zlari. Sonlarning otlashishi. Ravish so'z turkumi. Ravishlarning ma'no turlari. Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Olmosh so'z turkumi. Olmoshlarning ma'no turlari. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar va ularning xususiyatlari. Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar.</p>
1.7	<p style="text-align: center;">Sintaksis</p> <p>Gapda so'zlarning bog'lanishi. So'z birikmasi. Teng bog'lanish. Tobe bog'lanish. So'z birikmasi va so'zlar qo'shilmasi. So'z birikmasi va qo'shma so'z. So'z birikmasi va ibora. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. His-hayajon ishtirokiga ko'ra gap turlari. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.</p> <p>Gap bo'laklari. Kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot. Egali va egasiz gaplar. Gap bo'laklari tartibi. To'liq va to'liqsiz gaplar. Gapning uyushiq bo'laklari. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z. Ajratilgan bo'lakli gaplar. Kiritmalar (kirish so'z). Undalma. Gapning uyushiq bo'laklari, ajratilgan bo'laklar, undalma va kiritmalar yuzasidan tahlil.</p>

	<p>Qo'shma gaplar. Kesimlik belgilari. Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar. Qo'shma gap turlari: bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap turlari va ularda tinish belgilari. Ergash gapli qo'shma gap. Bosh gap va ergash gap. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar. Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gaplar bilan ma'nodoshligi.</p> <p>Ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan tahlil. Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida ma'lumot. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning boshqa qo'shma gaplar bilan ma'nodoshligi.</p> <p>Ko'chirma gapli qo'shma gap haqida ma'lumot. Ko'chirma gapli qo'shma gapning tuzilishi. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish.</p>
1.8	<p style="text-align: center;">Matn ustida ishlash</p> <p>Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar. Nutqning to'g'riligi. Nutqning aniqdigi. Nutqning aniqdigi va badiiy nutq. Nutqning mantiqiydigi. Mantiqiylik va grammatik vositalar. Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi. Nutqning sofligi. Nutqning sofligi va badiiy nutq. Nutqning boyligi. Nutqning boyligini ta'minlovchi vositalar. Nutqning jo'yalidigi. Jo'yalilik va uslublar. Nutqning ifodalidigi. Ifodalilik va ibora. Ifodalilik va ko'chimlar. Ifodalilik va kinoya. Ifodalilik va o'xshatishlar. Nutq madaniyati va nutq texnikasi. Nutq texnikasida urg'u va to'xtam (pauza). Ish qog'ozlari va ular bilan ishlash.</p>
2.	ADABIYOT
2.1	Xalq og'zaki ijodi
2.2	Mumtoz adabiyot namunalari, ularning badiiy tahlili (qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot).
2.3	XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti namunalari, ularning badiiy tahlili. Jadid adabiyoti. Nasriy, she'riy, dramatik asarlarning badiiy tahlili. Zamonaviy adabiyot. Nasriy asarlarning badiiy tahlili. Dramatik asarlarning badiiy tahlili. Lirik, liro-epik asarlarning badiiy tahlili.
2.4	Jahon adabiyoti namunalari, ularning badiiy tahlili.
2.5	Mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlar, ularning badiiy tahlili (tarixiy mavzudagi badiiy asarlar va ularning tahlili, turli mavzulardagi badiiy asarlar tahlili).
2.6	Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil
	Adabiy turlar. She'riy, nasriy, dramatik janrlar haqida tushuncha. Badiiy obraz va badiiy tasvir. She'r vaznlari haqida tushuncha. She'riy san'atlar haqida ma'lumot. Qofiya, raviy va radif haqida tushuncha.

VI. ONA TILI VA ADABIYOT FANIGA OID KOGNITIV KO'NIKMA DARAJALARI

Quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - matn va uning qismlari mazmunini tushunish; - matnlarni tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish; - matnda berilgan ma'lumotlarni topa olish va tushunish; - o'zbek tilining imlo, punktuatsion, uslub, leksik va grammatik me'yorlarini bilish, tushunish; - til birliklarini to'g'ri qo'llay olish; - asardagi obrazlar haqida berilgan ma'lumotlarni topa olish va tushunish.
Yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - til birliklarini qo'llashdan ko'zlangan maqsadni tushunish; - matndagi verbal va vizual ma'lumotlar (jadval, diagramma, grafiklar) o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish va tahlil qilish; - matnning lingvistik (fonetik, leksik, grammatik) xususiyatlarini tahlil qilish; - badiiy matnlarning janr xususiyatlarini tahlil qila olish; - matnda qo'llangan badiiy tasvir va ifoda vositalarini tushunish hamda tahlil qila olish; - berilgan vaziyatga baho berish hamda shu vaziyatga mos matn yarata olish.

VII. ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI YORDAMIDA TEKSHIRILADIGAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALAR

Ona tili va adabiyot faniga oid test topshiriqlari talabgorlarning nazariy bilimlarini o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan topshiriqlardan iborat. **Mazkur test topshiriqlarini ishlab chiqishda amaldagi davlat ta'lim standartlari va umumta'lim fanlari o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos qilib olindi.**

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar	
ONA TILI	Lingvistik kompetensiya	O'zbek tilining imlo qoidalarini biladi, tushunadi, qo'llay oladi. Tinish belgilarining vazifasi va ahamiyatini biladi, tushunadi, qo'llay oladi. Tilda mavjud leksik birliklar va ularning leksik-semantik xususiyatlarini biladi, tushunadi, qo'llay oladi. Til birliklarining (leksik, grammatik vositalarning) uslubiy xususiyatlarini biladi, tushunadi, qo'llay oladi, tahlil qila oladi. So'zlarning morfologik xususiyatlari, ularning nutqdagi ahamiyatini biladi, tushunadi, qo'llay oladi. So'zlarni mazmun va grammatik jihatdan bog'laydi. Gap bo'laklari, ularning grammatik-uslubiy xususiyatlari va nutqdagi ahamiyatini biladi, tushunadi, qo'llay oladi, tahlil qila oladi. Sodda va qo'shma gaplarning mazmuniy va grammatik xususiyatlarini biladi, tushunadi, qo'llay oladi, tahlil qila oladi.
	Nutqiy kompetensiya	<p style="text-align: center;">O'qish savodxonligi</p> <p>Matnning yoki uning qismlarining umumiy ma'nosini tushunadi. Matnda bir yoki bir necha gaplarda ifodalangan ma'lumotlarni qayta ifodalay oladi (perefraza). Matn yoki uning qismlari orqali ifodalangan ma'lumotlarni topa oladi va tushunadi, ular o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qila oladi. Matn qismlari orasidagi</p>

		<p> mantiqiy izchillik, sabab – oqibat, xulosa – izoh tarzidagi mazmuniy va sintaktik bog‘liqlikni tahlil qila oladi. Matndagi til birliklarining (leksik, grammatik yoki sintaktik birliklarning) ma’nosi, vazifasi yoki maqsadini tahlil qila oladi. Muallif nuqtayi nazarini tushunadi, umumiy mazmun yoki g’oya yuzasidan xulosa chiqara oladi. Matnda yashirin ifodalangan ma’lumotlarni tushunadi, matndagi verbal va vizual ma’lumotlar o’rtasidagi bog‘liqliklarni tushunadi, jadval, grafik, diagramma, illyustratsiya va boshqa vositalar yordamida ifodalangan axborotlarni tahlil qila oladi. Ko’chma ma’noda ishlatilgan leksik birliklarning ma’nosini tushunadi. Matnda ishlatilgan sintaktik elementlarning (bog‘lovchi vositalar, olmoshlar, modal so‘zlar va hokazo) matndagi vazifasini tahlil qila oladi. Matnning umumiy mazmuni yuzasidan xulosa chiqara oladi.</p>
		<p style="text-align: center;">Yozma savodxonlik</p> <p>Berilgan vaziyatga baho bera oladi hamda shu vaziyatga mos matn yarata oladi. Imlo va punktuatsiya qoidalarini qo‘llay oladi. Tilda mavjud leksik birliklardan unumli foydalana oladi. Grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llay oladi. O‘z fikrini tartibli bayon qila oladi. Fikrlarini dalillay oladi. Gap bo‘laklarini to‘g‘ri shakllantira oladi. Gap turlaridan o‘rinli foydalana oladi.</p>
ADABIYOT	Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi	<p>Berilgan asarning (parchaning) umumiy g’oyasi va mazmunini, badiiy parcha qismlarining mazmunini tushunadi, tahlil qila oladi. Asardagi (parchadagi) obrazlarga tavsif bera oladi. Asar (parcha) matnida yashirin ifodalangan ma’noni tushunadi. Asarning lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlari hamda ularning maqsadini tushunadi, tahlil qila oladi. Asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalarining qo‘llanish maqsadini tushunadi, tahlil qila oladi.</p>
	Adabiy-nutqiy kompetensiya	<p>Badiiy asar g’oyasini tahlil qila oladi. Badiiy asar sujetini biladi. Badiiy unsurlarni tahlil qila oladi. Asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalarining qo‘llanish maqsadini tushunadi, tahlil qila oladi. Asarning lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlari hamda ularning maqsadini tushunadi, tahlil qila oladi.</p>

VIII. BAHOLASH MEZONLARI

Test natijalari xalqaro baholash metodikasi – Rash modeli asosida hisoblanadi.

Yozma savodxonlik uchun alohida baholash mezonini ishlab chiqiladi.

**Izoh: Mazkur hujjatga aprobat siya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlari asosida qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.*

MUSTAQIL O'QISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN BADIY ASARLAR

(2026-yil 1-aprelga qadar)

1. "Zarbulmasal" (Gulxaniy)
2. "O'tkan kunlar" romani (Abdulla Qodiriy)
3. "Mehrobdan chayon" romani (Abdulla Qodiriy)
4. "Kecha va kunduz" romani (Abdulhamid Cho'lpon)
5. "Tushda kechgan umrlar" romani (O'tkir Hoshimov)
6. "Nur borki, soya bor" roman (O'tkir Hoshimov)
7. "Ikki eshik orasi" roman (O'tkir Hoshimov)
8. "Qiyomat" romani (Chingiz Aytmatov)
9. "Asrga tatigulik kun" romani (Chingiz Aytmatov)
10. "Me'mor" roman (Mirmuhsin)
11. "Xo'jand qal'asi" romani (Mirmuhsin)
12. "Yulduzli tunlar" roman (Pirimqul Qodirov)
13. "Avlodlar dovoni" roman (Pirimqul Qodirov)
14. "Ko'hna dunyo" romani (Odil Yoqubov)
15. "Ulug'bek xazinasi" romani (Odil Yoqubov)
16. "Diyonat" romani (Odil Yoqubov)
17. "Oltin zanglamas" romani (Shuhrat)
18. "Jimjitlik" roman (Said Ahmad)
19. "Ufq" trilogiyasi (Said Ahmad)
20. "Lolazor" romani (Murod Muhammad Do'st)
21. "Chinor" romani (Asqad Muxtor)
22. "Otamdan qolgan dalalar" romani (Tog'ay Murod)
23. "Jaziramadagi odamlar" romani (Luqmon Bo'rixon)
24. "Abulfayzxon" dramasi (Abdurauf Fitrat)
25. "Sohibqiron" dramasi (Abdulla Oripov)
26. "Temir xotin" komediyasi (Sharof Boshbekov)
27. "Dunyoning ishlari" qissasi (O'tkir Hoshimov)
28. "Sarvqomat dilbarim" qissasi (Chingiz Aytmatov)
29. "Oq kema" qissasi (Chingiz Aytmatov)
30. "Jayhun ustida bulutlar" qissasi (Mirkarim Osim)
31. "Molxona" qissasi (Jorj Oruell)
32. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi (Tog'ay Murod)
33. "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi (Erkin A'zam)
34. "Qorako'z majnun", "Qoplon", "Sobiq" hikoyalari (Said Ahmad)
35. "Asror bobo", "Ming bir jon", "O'g'ri", "Bemor" "O'jar", "San'atkor", "Adabiyot muallimi" hikoyalari (Abdulla Qahhor)
36. "O'zbeklar", "Ot egasi" hikoyalari (Shukur Xolmirzayev)
37. "Hayotga muhabbat" hikoyasi (Jek London)
38. "Hellados" hikoyasi (Nodar Dumbadze)
39. "Garov" hikoyasi (Anton Chexov)
40. "Ruhlar isyoni" dostoni (Erkin Vohidov)

MUSTAQIL O'QISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN BADIY ASARLAR

(2026-yil 1-apreldan so'ng)

T/r	Muallif	Asar nomi	Janri
ROMANLAR			
1.	Abdulla Qodiriy	“O'tkan kunlar”	roman
2.	Abdulhamid Cho'lpon	“Kecha va kunduz”	roman
3.	O'tkir Hoshimov	“Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”	roman
4.	Murod Muhammad Do'st	“Lolazor”	roman
5.	Tog'ay Murod	“Otamdan qolgan dalalar”	roman
6.	Chingiz Aytmatov	“Qiyomat”, “Asrga tatigulik kun”	roman
7.	Mixail Lermontov	“Zamonamiz qahramoni”	roman
8.	Yuy Xua	“Yashamoq”	roman
9.	Onore de Balzak	“Sag'ri teri tilsimi”	roman
10.	Aleksandr Dyuma	“Graf Monte Kristo” (“If qal'asining mahbusi”, 1-kitob)	roman
11.	Jon Boyn	“Yo'l-yo'l poyjoma kiygan bolakay”	roman
12.	Jonatan Svift	“Gulliverning sayohatlari”	roman
QISSALAR			
13.	Sadriddin Ayniy	“Sudxo'ring o'limi”	qissa
14.	Erkin A'zam	“Chapaklar va chalpaklar mamlakati”	qissa
15.	Chingiz Aytmatov	“Oq kema”	qissa
16.	Jorj Oruell	“Molxona”	qissa
17.	Antuan de Sent-Ekzyuperi	“Kichkina shahzoda”	qissa
DRAMALAR			
18.	Sharof Boshbekov	“Temir xotin”	drama
19.	Abdulla Oripov	“Ranjkom”	dramatik doston
HIKOYALAR			
20.	Abdulla Qahhor	“Asror bobo”, “Ming bir jon”, “O'jar”, “San'atkor”, “Adabiyot muallimi”, “Anor”	hikoya
21.	G'afur G'ulom	“Mening o'g'rigina bolam”	hikoya
22.	Odil Yoqubov	“Muzqaymoq”	hikoya
23.	Zulfiya Qurolboy qizi	“Tafakkur”	hikoya
24.	Nazar Eshonqul	“Shamolni tutib bo'lmaydi”, “Maymun yetaklagan odam”	hikoya
25.	Abduqayum Yo'ldosh	“Puankare”	hikoya
26.	Jek London	“Hayotga muhabbat”, “Oq sukunat”	hikoya
27.	Nodar Dumbadze	“Hellados”	hikoya
28.	Anton Chexov	“Garov”, “Xameleon”, “Semiz va ozg'in”	hikoya
29.	Artur Konan Doyl	“Mallalar uyushmasi”	hikoya
30.	Frans Kafka	“Evrilish”	hikoya
31.	Aziz Nesin	“Hushtak afandi”, “Adabiyotsevar”, “Alifboning birinchi harfi”, “Demokratiya shunqori”	hikoya
SHE'RLAR			
32.	Abdulhamid Cho'lpon	she'rlar	
33.	Usmon Nosir	she'rlar	
34.	Abdulla Oripov	she'rlar	
35.	Erkin Vohidov	she'rlar	
36.	Shavkat Rahmon	she'rlar	

Izoh: Ro'yxatda keltirilgan beshta ijodkor qalamiga mansub she'rlarning mavzu doirasi, badiiyati kabi umumiy xususiyatlarini o'rganish tavsiya qilinadi (she'rlar matnini yod olish shart emas).